

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIIY-IQTISODIY FAKUL'TETI

105-GURUX TALABASI

ABDULLAYEV SARVARBEKNING

«O'ZBEKISTON TARIXI » FANIDAN TAYYORLAGAN

Referati

TOPSHIRDI :
QABUL QILDI :

ABDULLAYEV S.
ABBASOV B.

Mavzu: XX asrning 70-80-yillarida O'zbekiston adabiyoti va san'ati

Reja:

Kirish.

1.XX asrning 70-80-yillarida O'zbekiston adabiyoti.

2.XX asrning 70-80-yillarida O'zbekistonda Teatr.

3.XX asr 70-80-yillarida san'at, (musiq, tasviriy, san'at)

Xulosa.

Kirish.

Vatan.... Bu so'z nimani anglatadi? Vatan sarhadi qayerdan boshlanib qay nuqtada nihoya topadi? Vatan deganda avvalo o'sha muqaddas sarhadning yer-suvi, muhiti, tabiati, unda makon topgan jonli-yu jonsiz mavjudotlarni aniqlamoq kerak. Kimgaki shu narsalar aziz tuyulsa, kimki shularni ko'z qorachig'idek asrab-avaylashga odatlangan bo'lsa, demak, u chin ma'nodagi vatanparvarlikdir. Xuddi shu nuqtai nazardan qaralganda biz istiqloldan keyingina Vatan so'zining tub mohiyatini ilg'ay boshladik.

O'tgan asrning 70-80-yillarida sovet jamiyatida paydo bo'lgan o'zgarishlar o'zbek adabiyoti va san'ati arboblarni sotsalistik realizm qobiqlarini yorib chiqib, dunyoviy realizm sari borishga undadi.

Bu davrda ko'plab adabiyot va san'at sohasida asarlar yaratildi. Bu asarlarning g'oyasi aynan Sovet hukmdorligiga qarshi qarashlar, mustaqillikka erishish go'yalaridan iborat edi. Bu ishlarga chek qo'yish maqsadida Sovet hukumati tomonidan yana bir bora qatag'onlik siyosati yuritildi. Bu qatag'onlik ko'plab ijodkorlarni ta'qib ostiga oldi. Lekin bu siyosat ayrim sabablarga ko'ra to'xtatildi.

Bunday keyingi yillarda o'zbek adabiyotida proza janrida asarlar yaratildi. Bolalar adabiyotiga qator o'ziga xos yozuvchi va shoirlar kirib keldi. Bundan tashqari O'zbek she'riyatida turkum sherlar, yangi poema va dostonlar yaratildi.

Dramaturglar ham bir qancha mukammal pyesalar yozib, sahnaga chiqardilar. Biroq bu davrda teatr san'ati bo'xtonli ahvolda edi. Buning sabablari esa teatr va tomashebin hamda repentuar muammolarida ko'rinadi. Bu san'at turining rivoj topishiga komunistik mafkuraning tayziqlari, hukmron siyosiy kuchning buyurtmasi katta to'siq bo'lib keldi.

80-yillarning o'rtalaridan adabiyot va san'at xalq hayotini haqqoniy aks ettirish yo'lida yangicha qadamlar qo'ya boshladi. Badiiy asarlarning

mavzusi doirasiga o'zbek dehqonining mashaqqatli taqdiri, tabiat, til, madaniyat va tariximizga oid muammolar shiddatliroq kirib keldi. Yangi mazmun ijodda yangicha zamonaviy shakl, xalqaro ohanglarga keng yo'l ocha boshladi.

1. Mustabid tuzumning oxirgi o'n yilligi davomida o'zbek adabiyoti har qanday siyosiy-ijtimoiy "qoliplar" ichida turib bo'lsa-da, rivoj topdi, qator sermazmun asarlar vujudga keldi. Ayni paytda iste'dodli ustoz adiblar qatoriga o'nlab yangi, isyonkor ijodkorlarni olib kirdi. O'sha yillarda O'zbekistonda adabiyotning tarixiy mavzusi ancha boyidi. Jumladan, Nazir Safarovning "Navro'z", Hamid G'ulomning "Mangulik", "Mashrab", Mirmuhsinning "Me'mor", "Temur Malik", "Movarounnahr", Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasini", "Ko'hna dunyo", Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar", "Avlodlar dovoni" kabi romanlari o'zbek adabiyotining tarixiy mavzusini yoritdi. O'zbek adabiyoti 80-yillarda ham ancha qalamkash iste'dodlarni yetishtirib berdi. O'lmas Umarbekov, Xudoyberdi To'xtaboyev, O'ktam Usmonov, O'tkir Hoshimov, Uchqun Nazarov, Shukur Xolmirzayev, Ne'mat Aminov, Temur Po'latov, Omon Muhtor, Farhod Musajonov singari ijodkorlar o'z asarlarida insondagi ma'naviy-axloqiy fazilatlarni ardoqlashga, ular o'rtasidagi mehr-oqibat va sadoqatni ehtiyot qilishga, shavqatli bo'lishga chorlab keldilar.

"70-80yillar she'riyatda ham inson va jamiyat muammosi bosh mavzu bo'lib qoldi. She'riyatda tabiat haqida, paxta va paxtakor haqida falsafiy mushohazalar o'rta qo'yildi, Katta avlod shoirlari – Uyg'un, Mirtemir, Sobir Abdulla, Habibiy, G'ayratiy, Charxiy, Zulfiya, o'rta avlod shoirlari – Mamarasul Boboyev, Asqad Muhtor, Hamid G'ulom, Shuhrat, Turob To'la, Shukrullo, Ramz Bobojon, O'tkir Rashid va bir muncha iste'dodli shoirlar – Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Jamol Kamol, Jumaniyoz Jabborov, Omon Matjon, Rauf Parfi, Azim Suyun, Usmon Azimov, Halima Xudoyberdiyeva va boshqalar she'riyatining mazmuni va ma'nosi nihoyatda keng va

chuqurdir. Ular yaratgan asarlar o'zbek she'riyati xazinasidan munosib o'rin egalladi”¹

Mustabid tuzum va u tufayli jamiyatda sodir bo'lgan salbiy holatlar o'zbek adabiyotiga ham ta'sirini o'tkazdi. Adabiyot vakillari kommunistlarning keng xalq ommasi ongiga kommunistik mafkura g'oyalarini singdirish, ularni kommunistik ruhda tarbiyalash singdirish, ularni kommunistik ruhda tarbiyalash kabi ijtimoiy buyurtmalarni bajarishga majbur etdilar. Yaratilgan asarlar aksariyati zamonni maqtash, olqishlarga bag'ishlandi. Ularda hayotiy voqealarni talqin qilishga partiyaviylik, sinfiylik nuqtayi nazaridan turib yondashildi. Jamiyat hayotiga ana shunday yondashish turli illatlarni va saviyasi past asarlarni adabiyotga olib kirdi.

Zo'ravonlik, tazyiq va tanqidlar tufayli jamiyatni to'lqinlantirib kelayotgan ko'pgina ijtimoiy muammolar asarlarda o'z ifodasini muammolar asarlarda o'z ifodasini topmadi. Shunga qaramasdan, oz bo'lsa-da, o'zbek adabiyotida milliy ruh singdirilgan yaxshi asarlar dunyoga keldi.

Urush yillari voyaga yetgan ko'plab ijodkorlar adabiyotga kirib keldilar. Said Ahmad, Asqad Muhtor, Ozod Sharafiddinov, Turob To'la, Shukrullo, Ramz Bobojon, Rahmat Fayziy, Mamarasul Boboyev, Ibrohim raim, Pirimqul Qodirov, Odil Yoqubov, Saida Zunnunova, Erkin Vohidov kabi yozuvchilar adabiy jarayonni jonlantirib yubordilar.

“XX asrning 70-yillarida o'zbek adabiyotiga bir qator iste'dodli shoir va yozuvchilar kirib keldilar. Ular orasida Murod Muhammad Do'st, Erkin A'zamov, Xayriddin Sultonov, Tog'ay Murod kabi nosirlar, Shavkat Rahmon, Xurshid Davron, Usmon Azim, Muhammad Rahmon singari shoirlar bor edi. Bu avlod o'zlaridan avvalgi ijodkorlar boshlab bergan eng yaxshi an'analarni davom ettirgan holda, adabiyot sahnasiga ko'proq oddiy odamlar obrazini, ularning orzu-armonlarini talqinini olib chiqdilar. Bu davrda M.M.Do'st tomonidan “Bir toychoqning xuni”, “Galatepaga qaytish”, Erkin A'zamov “Otoyining tug'ilgan yili”, “Javob”, X.Sultonov

¹ Alimova D.A., Karimov R.H. va boshqalar. O'zbekiston tarixi. –T.: Sharq, 2004.-B.385-386.

tomonidan “Yozning yolg`iz yodgori”, “Ko`ngil ozodadur” asarlari yaratildi. Bu asar qahramonlari bir qaraganda boshqalardan keskin farq qilmaydigan, har qadamda uchraydigan oddiy odamlar. Ular katta tarixiy o`zgarishlarga boshchilik qilishmaydi, favqulotda qahramonliklar ko`rsatib boshqalarga o`rnak bo`lishmaydi. Lekin shunisi muhimki, yosh o`zbek adiblari dunyoning omonligi, jamiki shu oddiy odamlar tufayli ekanini ko`rsata oldilar”²

“70-80 yillarda Odil Yoqubov tomonidan “Ulug`bek xazinasini” (1973), “Ko`hna dunyo” (1982), “Diyonat” (1977) , “Oqqushlar, oppoq qushlar” (1988) romanlari yaratildi. Bu davrda Said Ahmad ham sermahsul ijod qildi. 1988-yilda adibning “Jimjitlik” romani nashrdan chiqadi. 70-80 yillarda o`z hikoyalari asosida “Kelinlar qo`zg`oloni”, “Kuyov” nomli pyesalar yozdi. “Said Ahmad – o`tkir kulgu ustasi. Bu xususiyat uning barcha janrlardagi asarlariga ko`chgan deyish mumkin. Jumladan, adibning “Kelinlar qo`zg`oloni” (1976) komediyasi dovrug`i olamga ketgan sahna asari hisoblanadi. Asar o`zining samimiy tili, sharqona lutf va kulgiga boyligi, tarbiyaviy ruhi bilan ko`plab mamlakatlarning tomoshabinlarining ko`ngligini ham rom etdi”³

Yana bir adib Mirtemir hisoblanadi. Mirtemirning 70-yillarda yozgan she`rlaridan biri “O`zim bilaman...” deb nomlanadi. Shoir bu she`rda ifodalangan mazmunni ifodalash maqsadida, sarlavhadan keyin, “Tagorga ergashib...” deya she`rga izoh bergan. Bu she`r 1974-yilda yozilgan. Shoir xuddi yilda “Ona tilim” she`rini yozadi. Mirtemirning ijodiy qiyofasini belgilaydigan, uni kitobxon uchun ardoqli qilgan narsa – uning she`riyati edi.

² Ahmedov S., Qo`chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot (6-sinf).-T.: Ma`naviyat, 2009. B.270.

³ Olim S., Ahmedov S., Qochqorov R., Adabiyot (8-sinf).-T.: O`zbekiston, 2010. -B. 243-244

Yana bir qalamkash ijodkor Primqul Qodirov hisoblanadi. U “Meros” qissasida el-yurti doimo toʻlqinlantirib yurgan muammo – paxtachilik mashaqqatlarini qalamga oladi.

“Meros” yozilgan oʻtgan asrning 70-yillarida bunday mavzuni yoritish qiyin edi. Shoʻro siyosati va mafkurasi bunga yoʻl qoʻymasdi. Bulardan qatʼiy nazar, qissadagi Yolqin Otajonov obrazi yozuvchining mahorat bilan yaratgan jonli, intiluvchan, jozibali qahramonlari qatorida turadi.

Bundan tashqari romanlar ham yozdi. “Qora koʻzlar” romanida qishloq hayoti tasvirlangan boʻlsa, “Olmos kamar”da (1977) yozuvchi shaharliklar hayotiga murojaat etdi. Asar 1987-yilda qayta ishlandi va ayrim oʻrinlar tahrirda qisqartirildi, baʼzi lavhalar bilan boyitildi.

“Yulduzli tunlar” romani Pirimqul Qodirovning yirik asarlaridandir. “Yulduli tunlar” romani Shoʻro davrida yozilgan boʻlib, olti-yetti yil chop etilmadi. Nihoyat 1978-yilda yozilib chiqdi, hatto 1981-yilda Oʻzbekiston Davlat mukofotiga sazovor boʻldi. Roman matbuotda feodalizmni targʻib qiluvchi asar sifatida qoralandi. Muallifga millatchi, burjua yozuvchi deb tuhmat qilindi. Yangi zamon mustaqillik adibi ham, romanni ham xalqqa qaytardi.

Bu davrning zabardast vakillaridan Erkin Vohidovdir. “70-80 yillarga kelib shoir sevgi, “hayot kuychisi”gina emas, koʻproq hayotning, inson qalbining badiiy tatqiqotchisi sifatida koʻrina boshladi. “Hozirgi yoshlar”, “Inson”, “Sirdaryo oʻlani”, “Arslon oʻynatuvchi” sheʼrlari, “Ruhlar isyoni”, “Istambul fojeasi” singari dostonlari bu jihatdan shoir ijodida olgʻa tashlangan qadam boʻldi”⁴ Bundan tashqari “Palatkada yozilgan doston”, “Quyosh maskani” dostonlari ham muallifidir.

A.Oripovning “Onajon”, “Yuzma-yuz”, “Yillar armoni” (1984) toʻplamlari, ulardagi sheʼrlari bilan XX asr oʻzbek adabiyotining zabardast vakillari qatoridan oʻrin egalladi.

⁴ Karimov N., Nazarov B., Normatov U., Yoʻldoshev Q., Adabiyot (11-sinf). –T.: Oʻqituvchi 2004.–B. 293.

She'riyat pillapoyalarida orttirilgan tajriba va ehtiyoj hayotni, qahramonni kengroq, chuqurroq tasvirlashga undadi. Shoir o'zbek adabiyotini "Jannatga yo'l" (1978), "Hakim va ajal", "Ranjkom" dostonlari bilan boyitdi. Adib lirikada ham sermahsul ijod qildi. 1976-yilda "Malomat toshlari" nomli she'r yozadi. "Keyingi paytlarda tariximizning o'lmas qadriyatlaridan foydalanib, ta'sirlanib, "Hikmat sadolari" nomli she'riy kitob yozdim. Biroq shuni ham aytib o'tishim joizki, 1981-yilda "Hakim va Ajal" dostonim uchun O'zbekiston Davlat mukofotiga sazovor bo'ldim"⁵ deb o'zining tarjimai holida bayon etgan edi.

Shu davrga mansub vakillardan yana biri Shukur Xolmirzayevdir. Sh.Xolmirzayev tomonidan "Yo'llar, yo'ldoshlar" (1973), "Yur, tog'larga chiqamiz" (1973), "Cho'loq turna" (1978), "Tuproq ko'chalar" (1978), "Qush tili" (1982), "Qahramonning so'nggi kunlari" (1984), "Tog'larga qor tushdi" (1986), "Abdulla Nabi o'g'lining so'nggi kunlari" (1983), "Esiz, Eshniyoz!" (1988) kabi hikoya va qissalar yaratdi. Adibning "So'nggi bekat" (1976), "Qil ko'prik" (1984), "Yo'lovchi" (1987) asarlari o'zbek romanchiligi taraqqiyotida o'ziga xos o'rin tutadi. "Qil ko'prik" asarida "qizil"larning istiqbolchilarga (davr tili bilan ayganda "bosmachi"larga) qarshi olib borgan kurashi va ularni mavh etish yo'llari, jarayonlari tasvirlanadi. Yozuvchi 1987-yilda "Qora kamar" dramasini yozdi. Asarda yolg'on e'tiqod insonlarni qay kunlarga solishi va e'tiqodsizlik millatni qanchalar tubanlashtirishi mumkinligi yorqin obrazlar orqali haqqoniy aks ettiriladi.

Asqad Muxtor tomonidan ham bu davrda ko'plab asarlar yaratildi. Uning ijodida "Quyosh belanchagi" (1971), "Sizga aytar so'zim" (1978) singari she'riy to'plamlar, "Buxoroning jin ko'chalari" (1980), "Bo'ronlarda bordek halovat, "Jar yoqasidagi chaqmoq" (1982), "Kumush

⁵ Karimov N., Nazarov B., Niyozmetova G., Normatov U. XX asr O'zbek adabiyoti. –T.: O'qituvchi, 1993. –B. 355.

tola” (1987) singari qissalarni, “Chinor” (1969-1973), “Amu” (1984) kabi yirik romanlarini kuzatishimiz mumkin.

1975-yilda Moskvadagi tahsilni tamomlagan Shavkat Rahmon Toshkentga keladi. U bir qator mashriyotlarda muharrirlik qildi. Deyarli hamisha qizg`in ijod bilan mashg`ul bo`lgan talabchan shoir “Rangin lahzarlar” (1978), “Yurak qirralari” (1981), “Ochiq kunlar”(1984), “Gullayotgan tosh” (1985), Uyg`oq tog`lar“ (1986), “Hulvo” (1897) singari she`riy kitoblarni chop ettirdi. Sh.Rahmon 1979-yilda atoqli ispan hoiri Federiko Garsia Lorka she`rlaridan iborat kitobni rus tilidan o`zbekchaga ag`darib, “Saylanma” nomi bilan chop ettirdi.

70-80 yillarda Turob To`la ham samarali ijod qildi. “Oftob nayzada” (1974), zamondosh o`zbek adabiyoti va san`ati namoyondalariga bag`ishlangan “Kamalak” (1972) nomli adabiy portret va xotiralar kitobi o`quvchilar qo`liga yetib bordi. Jumladan shoirning “Qanotlan, qo`shiqlarim” to`plamidan o`rin olgan aksariyat she`rlari respublikamizning ko`plab iste`dodli san`atkorlari tomonidan qo`shiq qilib kuylanib, xalqimiz qalbidan chuqur o`rin egalladi. T.To`la shu tariqa zamonaviy o`zbek qo`shiqchilik san`ati rivojiga salmoqli hissa qo`shgan ijodkor sifatida taniladi.

Xudoyberdi To`xtaboyev 70-yillar boshida o`z ijodiy faoliyatini bolalar hayotini keng tasvirlagan asarlar yaratishga yo`naltiradi. Yozuvchi o`zining tarjimayi holida bu qarorini shunday izohlaydi: “Ruhi dunyosi pok bo`lgan, tarbiyaga quloq soladigan, savob va gunohni bilishga intiladigan, ruhi go`zallikka talpinayotgan bolalar dunyosida ishlasam qanday bo`lar ekan, deb o`ylay boshladim va qaror ham qabul qildim, bolalar, o`smirlar dunyosiga paqqos o`tib ketdim”. Adib qalamiga mansub “Omonboy va Davronboy sarguzashti” qissasi (1974), “Sariq devning o`limi” (1973), “Besh bolalik yigitcha” (1976), “Qasoskorning oltin boshi” (1981), “Yillar va yo`llar” (1983), “Shirin qovunlar mamlakati” (1986), “Mungli ko`zlar” (1988) kabi romanlari ana shu xayrli faoliyat mevasidir. X.To`xtaboyev

1982-yilda “O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi” yuksak unvoni bilan taqdirlandi.

1982-1976 yillarda respublika radiosining “Vatandoshlar” tahririyatida xizmat qilgan Tog‘ay Murod, undan keyin “O‘zbekiston fizkulturachi” gazetasida, 1982-yildan 1985-yilgacha esa “Fan va turmush” jurnalida xizmat qiladi. Tog‘ay Murodni iste’dodli yozuvchi sifatida ko‘rsatgan dastlabki yirik asar 1976-yilda dunyoga keldi. Bu “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi edi. Bu asarda kurash, kurashchi polvonlar, ular orasidagi muomala-munosabatlar, ziddiyatli hayotiy muammolar qalamga olinadi.

Yozuvchining keyingi asari – “O‘t kishnagan oqshom” qissasi (1979) dir. Bu asarda o‘sha davr adabiyotida kamdan-kam tilga olinadigan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar, butun dunyoga ibrat qilib ko‘rsatiladigan “sovet kishisi” tabiatiga xos illatlar badiiy jihatdan ta’sirchan va ishonarli tarzda ochib berilgandi. 1985-yilda yaratilgan “Qo‘shiq” qissasi unchalik muvaffaqiyatli chiqmadi. Buning o‘ziga xos sabablari bor edi.

Qissa janrida mana shunday tajribalar orttirgan Tog‘ay Murod ko‘plab mukofotlarga sazovor bo‘ldi.

Bu davrda Jumaniyoz Jabbarov tomonidan ham asarlar yaratildi. U 60-70 yillarda hozirgi “O‘zbekiston ovozi” gazetasida, 1981-yildan G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida direktor, 1985-yildan esa Respublika Yozuvchilar uyushmasida adabiy maslahatchisi, 1990-yildan boshlab o‘n besh yildan ortiq davr mobaynida O‘zbekiston Davlat mukofotlari qo‘mitasida mas’ul kotib, rais o‘rinbosari bo‘lib xizmat qildi. U tomonidan “Ilhom daqiqalari” (1971), “Sohillari hikoyasi”, “E’tiqod”, (1978), “Xayolimda o‘zing” (1985), kabi she’riy, nasriy va dramatik asarlari yaratildi.

Ozod Sharafiddinov o‘zining asarlari bilan mashhur. Birin-ketin “Yalovbardorlar” (1974), “Iste’dod jilolari” (1976), “Birinchi mo‘jiza”,

“Talant – xalq mulki” (1979), “Adabiyot – hayot darsligi” (1983), “Go`zallik izlab” (1985) singari kitoblari e`lon qilindi.

Ozod Sharafiddinovning ko`plab maqolalari adabiy jamoatchilik orasida birdan og`izga tushar, turli katta-kichik davralarning munozara mavzusiga aylanardi (masalan, “Hayotiylik jozibasi, sxematizm inersiyasi”, “Yurtim madhi bo`ldi so`nggi satri ham” (1973), “She`r ko`p, ammo shoirchi?” (1983), “Bir tilda gaplashaylik” (1987) va boshqa maqolalari). Ayniqsa, boshqalar nomini tilga olishga ham cho`chib yuradigan Cho`lpon, Fitrat singari ijodkorlar to`g`risida yozgan maqolalari, e`lon qilgan kitoblari adabiyot ixlosmandlaridagina emas, umuman orasida ham katta shov-shuvlarga sabab bo`lgan edi.

To`ra Sulaymon ijodida “Jahongashta” sodtoni (1970), “Hamqishloqlarim” (maqolalar to`plami), “Intizor” (1973), “Sirdaryo qo`shiqlari” (1974), “Iltijo” (1976), “Alhazar” (statistik va yumoristik asarlar to`plami (1976)), “To`yboshi” (1977), “Sizni eslayman” (1980), “Qora ko`zginam” (1981), “Gulshan” (1988), “Sarvinoz” (1989) kabi go`zal asarlarni uchratishimiz mumkin.

2.XX asrning 70-80 yillarida O`zbekistonda teatr.

Sermahsul ijodkorlarning yana biri Muhammad Yusufdir. Garchi, uning she`rlari vaqtli matbuotda tez-tez chop etilib turgan bo`lsa-da, birinchi she`riy to`plami nisbatan kech – 1985-yildagina e`lon qilingandi. Shundan keyin shoirning “Bulbulga bir gapim bor” (1987), “Iltijo” (1988), “Uyqudagi qiz” (1989), “Halima enam yallalari” (1989) singari o`nlab she`riy majmualari o`quvchi qo`liga yetib bordi.

Shu tariqa 70-80 yillarda ko`plab asarlar dunyo ko`rdi va bu asarlar hali-hanuzgacha o`z qimmatini yo`qotgan emas.

O`zbekiston teatr jamoalari 70-yillarda L.Sultonning “Noma`lum kishi”, S.Azimovning “Qonli sarob”, Oybekning “Qutlug` qon”, Uyg`unning “Qotil”, A.Qahhorning “Ayajonlarim”, S.Ahmadning “Kelinlar

qo'zg'oloni", O'lmas Umarbekvning "Shoshma qoyosh" va boshqa asarlarini sahnalashtirib, tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'ldilar. Bular jumlasiga o'zbek akademik teatri tomonidan sahnalashtirib jahon klassikasi shoh asarlari – V.Shakspirning "Qirol Lir", "Hamlet" dramatik asarlarini ham kiritish mumkin.

O'zbek teatrining rivojlanishiga rejissorlardan M.Uyg'ur, Y.Bobojonov, A.Ginzburg, T.Xo'jayevlar, aktyorlardan Abror Hidoyatov, O.Xo'jayev, A.Bakirov, S.Eshonto'rayeva, Sh.Burhonov, N.Rahimov, R.Hamroyev, Z.Muhammadjonov, B.Qoriyeva, Y.Abdullayeva, G'.A'zamov, Y.Ahmedov, T.Oripov, T.Azizov, Q.Xo'jayev, P.Saidqosimov va boshqa san'atkorlar salmoqli hissa qo'shdilar.

"O'zbekiatonda teatr va musiqa san'ati birmuncha o'sdi. Hamza nomidagi o'zbek drama teatri jamoasi Shekspirning "Otello" va "Yuliy Sezar", Uyg'unning "Navbahor", Abdulla Qahhorning "Shohi so'zana", N.Hikmatning "Bir sevgi afsonasi", R.Tagorning "Gang daryosining qizi", Uyg'un va Izzat Sultonning "Alisher Navoiy", M.Shayxzodaning "Mirzo Ulug'bek" asarlarini sahnalashtirdi"⁶

Bu davrda opera va balet san'ati rivoj topdi. A.Navoiy nomidagi Katta akademik opera va balet teatri, Muqimiy nomidagi o'zbek musiqali drama va komediya teatri, M.Gorkiy nomidagi rus dramatik teatri, Y.Oxunboboyev nomidagi respublika yosh tomoshabinlar teatri, Qo'g'irchoq teatri yangi tomoshalarni namoyish qildilar.

"70-80 yillar teatrda ziddiyatli davr bo'ldi: bir tomondan milliy an'analarga e'tibor kuchaygan bo'lsa, ikkinchidan, dabdababozlik, hayotni has-po'shlab ko'rsatish avj oldi. 1976-yil "Ilhom" teatr-studiyasi ish boshladi. 1986-yil Respublika Satira teatri tashkil topdi. 80-yillarning ikkinchi yarmida hayotni haqqoniy aks ettirish, janrlar rang-barangligi,

⁶ Usmonov Q., Sodiqov M. O'zbekiston tarixi –T.:Sharq 2003.-B.223-224.

tomoshaviylikka intilish mayllari yuzaga kelib, asta-sekin kuchayib bordi. Bu davrda Abror Hidoyatov nomidagi Teatr yetakchi o`ringa chiqib oldi”⁷

San’atdagi “ijtimoiy buyurtma” amaliyoti ayniqsa o`zbek teatri taraqqiyotida turg`unlik holatini yuzaga keltirdi. Bu ayniqsa, O`zbekiston K.P.M.Qning 1983-yilda qabul qilingan “Teatr san’atining ahvoli va uni yanada takomillashtirish hamda respublika mehnatkashlarini kommunistik ruhda tarbiyalashda uni rolini oshirish tadbirlari to`g`risida”gi qarorida aniq ifodalandi. Qarorga binoan teatr san’ati hodimlari, dramaturglar, rejissorlar zimmasiga eng avvalo inqilobiy, sovet turmush tarzini ulug`lovchi asarlar sonini ko`paytirishga ustuvor ahamiyat berish vazifasi yuklandi. Milliy-tarixiy mavzularga e’tibor berish esa “burjua mafkurasiga sajda qilish” deb baholandi.

“Ijtimoiy buyurtma” natijasida o`zbek teatr sahnalarida N.Pogodinning “Qora qushlar”, A.Ostrovskiyning “So`nggi qurbon”, M.Gorkiyning “Dushmanlar”, A.Tolstoyning “Shoh Fedor Ivanovich”, A.Arbuzovning “Yomon o`yinlar” kabi asarlari qo`yila boshladi. Lekin bu asarlar o`zbek milliy turmush tarzidan uzoq bo`lganligi uchun mahalliy tomoshabin tomonidan qabul qilinmadi. Natijada, xalqning teatr san’atidan bezishi kuchaydi. Faqat xalqqa yaqin ruhdagi sahna asarlargina o`zining tomoshabinini topa oldi, baynalminal va siyosiy ruhdagi asarlarga esa partiya tashkilotlarining “ko`rsatmasi” va “topshirig`i” bilan tashkilotlar, muassasa va korxonalar kasaba uyushmalari hisobidan ishchi va xizmatchilarning jamoa bo`lib teatrga tushishlari tashkil qilinib, shu yo`l bilan ularni moliyaviy jihatdan qo`llab-quvvatlash odat tusiga kirdi.

Bu yillarda an’anaviy tarzda ham birqancha ishlar qilindi.

80-90 yillarda Xorazm viloyati Shovot tumanidagi Manoq qishlog`ida masharaboz Davlatyor Erjonov rahbarligida to`da faoliyati tashkil topdi. 1988-yilda Andijonda o`tkazilgan respublika askiyachilar,

⁷ O`zbekiston milliy Ensiklopediyasi. –T. : Davlat ilmiy nashriyoti, 2004, 8 – tom.-B. 322

qiziqchilar va masharabozlar ko`rik tanlovida qatnashib, mazkur to`da ikkinchi o`rinni egalladi. 1986-yil askiyachi va qiziqchilarning ko`rik tanlovi o`tkaziladi. Bu ko`rik tanlovda Zaynabiddin Yusupov tashkil etgan “Marg`ilon xandasi” uyushmasi ikkinchi o`rin egalladi.

Muhiddin Darveshov Zanjirali Mirzatov nomidagi Qo`qon xalq teatrida ishlab, bir necha kulgili rollarni o`ynagan. Keyinchalik og`zaki ijodga o`tadi. 1984, 1986, 1988 yillarda Qo`qon, Andijonda bo`lib o`tgan respublika askiyachi va qiziqchilarining ko`rik-tanlovida qatnashib, oliy sovrinlari qo`lga kiritdi.

Muhiddin qiziq 1986-yilda Buvayda tuman madaniyat uyi qoshida qiziqchilarning “Qahqaha” guruhini tashkil etdi. Unda Jo`raxon Po`latov, Bahodir Shokirov, Abduvaqqos Dehqonov, Akromjon Isaqulov, Mansurjon Oxunov, Lola Xudoyberdiyeva kabi kulgi ustalari birlashadi. O`sha yili “Mushtum” jurnalida berilgan maxsus sahifada Muhiddin Darveshov “mutoyiba ustasi” deb atalib, uning ustoz qiziqchilar haqidagi kulgili hikoyalari e`lon qilinadi. “Qahqaha” to`dasi turg`un ishlamadi, zarur sharoit bo`lmaganidan har kim har tomonga tarqalib ketdi.

“Ham og`zaki ijod, ham yozma repertuar asosida ishlayotgan qiziqchilar bo`lgan. Bular poytaxt teatrlarining professional aktyorlari bo`lib sahnada aniq matn asosida kulgi obrazlar yaratsalar, xalq orasida (masalan, to`ylarda) og`zaki ijod qiladilar. Ularni “sahna qiziqlari” deb atashgan. Mirshohid Miroqilov, Hojisiddiq Islomov, Soyib Xo`jayev kabilar ana shunday sahna qiziqlari bo`lishgan. Ularga Baxtiyor Ixtiyorov, Husan Sharipov va boshqalar ergashgan. Bundan tashqari, kulgi yo`nalishida 1985-yilda tashkil topgan Abdulla Qahhor nomidagi butun bir davlat satira teatri ishlamoqda”⁸

Toshkentdagi bir guruh qiziqchilar tub aholi orasidan yetishib chiqqan bo`lib, ma`lum darajada shu yerning qiziqchiligi an`analarini o`zlashtirgan

⁸ Qodirov M.O`zbek teatri tarixi.-T.: Ijod dunyosi, 2003.-B. 223.

va ayni chog`da televideniya, kino san`atlari bilan bog`lanib, kulgu san`atining zamonaviy shakllarini faol izlab topayaptilar. Gap 1987-yilda Akmal Ikromov tumani, A.Qahhor nomidagi madaniyat uyi qoshida To`xtamurod Azizov tomonidan tashkil etilgan “Ko`zgu” kooperativ uyushmasi va undan tarqalgan qiziqchilar haqida gap ketayapti. Guruhga T.Azimov rahbarligida Mirza Xolmedov, Botir Muhammadxo`jayev, aka-uka Sobit va Obit Asomovlar birlashgan edi. 1988-yilda Andijonda o`tgan qiziqchi va askiyachilarning respublika ko`rigida qiziqchilikning parodiya, monolog, duet kabi zamonaviy turlarida tomosha ko`rsatib, birinchi o`rinni olgan edilar.

70-yillardan e`tiboran an`anaviy teatr hayotida burilish yuz berdi. Buxoro an`anaviy teatri namunalari Miraki Boysun, Denov, Urgut, Nurota singari tumanlardagina saqlanib qoladi. Shaharlarda esa barham topadi.

80-yillarning ikkinchi yarmidan jamiyat hayotida bir daraja yuzaga kelgan oshkoralik va erkinlik sharoitida qiziqchi va masharabozlar ham ancha dadillashib, kulgi bobida bamisoli uyg`onish yuz berdi. Bu ishda 1986, 1988, 1990-yillarda o`tkazilgan askiyachi va qiziqchilarning respublika ko`rik tanlovlari ham turtki vazifasini o`tadi.

O`zbekistonda musiqa san`ati bu davrda rivoj topdi. Yangi musiqiy jamoalar – “Lazgi”, “Shodlik”, “Go`zal”, “Bahor” xalq raqs, “Yalla” vokal-cholg`u ansambillari, M. Ashrabi, M.Burhonov, M.Leviyev, T.Sodiqov, L.Akbarov, S.Boboyev, D.Zokirov, U.Musayev kabi kompozitorlar bilan hamkorlikda yaratilgan yangi konsertlari bilan tanildilar.

“M.Ashrafiy nomidagi O`zbek davlat konservatoriyasi va o`zbekfilarmoniyasining musiqiy jamoalari o`zbek va boshqa respublikalar bastakorlarining asarlarini targ`ib qildilar. Faqat T.Jalilov nomidagi O`zbek davlat orkestri repertuaridan 1300 ga yaqin asarlar o`rin oldi”⁹

“Qayta qurish” davrida teatr.

⁹ Usmonov Q., Sodiqov M. O`zbekiston tarixi –T.:Sharq 2003.-B 224.

O'zbekiston ma'naviy madaniyatida teatr san'atining o'rni va roli juda katta. 80-yillar o'rtalaridan qayta qurish tufayli teatrdan real hayotga murojaat qilish hollari ko'rini boshladi. Shukrullo, Said Ahmad, Erkin Vohidov, O'tkir Hoshimovlarning asarlarida ma'muriy buyruqbozlik davrida respublikada paydo bo'lgan nosog'lom muhitni yoritishga, xalq tarixi, paxta yakkaxokimligi, ekologik muammolar kabi ijtimoiy masalalarga keng o'rin berildi. Ayniqsa, Izzat Sultonning "Abdulla Qodiriyning o'tgan kunlari", Sharof Boshbekovning "Temir xotin" asarlari shuhrat qozondi. Shuningdek, Surxondaryo, Qo'qon, Namangan teatrlarida ham mukammal asarlar sahnaga qo'yildi.

Qashadaryo viloyati musiqali va drama teatrida vujudga kelgan axloqiy-ruhiy holat natijasida mazkur teatrdan yosh, iqtidorli rejissor A.Abdunazarov boshchiligida bir guruh ajralib chiqib "Muloqot" teatr studiyasini tashkil etishi, iqtidorli rejissor B.Yo'ldoshev bilan birga bir guruh yosh, iste'dodli aktyorlar teatr studiyasini tashkil etishi, iqtidorli rejessyor B. Yo'ldoshev bilan birga bir guruh yosh, iste'dodli aktyorlar XX asr 70-80-yillarda san'at (musiqa, tasviriy san'at)ning hamza teatridan "Yosh gvardiya" teatriga o'tib ketishi teatr san'atiga demokratik jarayonlarning boshlanganidan dalolat beradi. Biroq teatr san'ati chuqur ziddiyatlar ichida edi. Natijada Respublika teatrlari o'z tomoshabinlarini yo'qota boshladi. Masalan, 1895-yilda O'zbekistondagi 30 ta teatrga 4802 ming tomoshabin tashrif buyurgan bo'lsa, bu raqam 1989-yilda 4387 mingni tashkil etdi.

Qayta qurish yillari qo'chiqchilik san'ati uchun ham og'ir sinovlar davri bo'ldi. Agar 1985-yilda O'zbekiston bo'yicha 13 ta Konsert muassasalari ijodiy faoliyat ko'rsatgan bo'lsalar, 1988-yilda bu raqam 7 tani tashkil etadi. Bu hol Respublikada Konsertlar (1985-yilda 2267000, 1988-yilda 2133000) sonining keskin kamayishiga sabab bo'ldi.

Konsert tashkilotlarining ijtimoiy obro'sizlanishi boisi repertuar masalasiga mafkuraviy tazyiqning kuchliligida edi. Milliy qo'shiqlar

“Sinfiylik ” ka ijod deb, madaniy merosga ijobiy munosabat esa millatchilik ko’rinishi sifatida tasdiq qilishi 80-yillarning ikkinchi yarmida O’zbekistondagi mafkuraviy raxbariyatning katta xatosi bo’ldi.

“Kino” O’zbekiston madaniy hayotining muhim qismiga aylandi. Respublikada iste’dodli kinematografchi kadrlar, rejissyorlar, operatorlar, ssenariychilar yetishib chiqdi. K.Yormatov, M. Qayumov, Y.Azamov, Sh.Abbosov, L.Fayziyev, Z.Sobitov kabi kino arboblarning nomi respublikadan tashqarida ham mashhur bo’ldi.¹⁰

Urushdan keyingi yillardan to 1985-yilgacha O’zbekiston kino san’atining yuksalish yillari bo’ldi. K.(y) Yormatov tomonidan 1970-yili “Qora konsulning halokati ” filmi yaratildi. 70-yillarda o’zbek kino san’atiga yosh talantli rejissyorlar, aktyorlar kirib keldi. Sh.Abbosovning “Toshkent – non shahri ” (1970), “Abu Rayxon Beruniy ” (1974), A. Hamroyevning “Shiddat ” (1971), R.Botirovning “Seni kutamiz yigit”(1972) E.Eshmuhammedovning “Umid qushi ”(1975) kabi filmlarida davr farzandlarining hayoti, izlanishlari tasvirlangan.Rejissyor M.Qayumovning “Mirzacho’l ” (1975) , “Paranji ” (1977) tanlovi Butun ittifoq va jaxon kinofestivallarida tomoshabinlarga manzur bo’ldi va birinchi yuksak mukofotlarga sazovor bo’ldi.

O’zbekistonda qadimdan sirk san’ati rivojlanib kelmoqda. 1976-yilda Toshkentda zamonaviy sirk binosining qurilib foydalanishga topshirilishi sirk san’atining yanada rivojlanishiga qulay imkoniyat yaratdi.O’zbek sirk ustalari Toshkentboyevlar, Zaripovlar, Xo’jayevlar, Madaleyevlar va masharaboz-qiziqchi Akram Yunusov va Boshqalarning chiqishlari, dasturlari nafaqat O’zbekistonda, shuningdek, boshqa mamlakatlarda ham muvaffaqiyatli namoish qilindi.va tomoshabinlarga manzur bo’ldi.Bu yillarda tasviriy san’at ham rivojlandi Bundan oldingi Urushdan keyingi yillarda O’zbekiston rassomlari, haykaltaroshlari, xalq amaliy san’ati ustalari sovet

¹⁰ Alimov D.A., Karimov R.H., Oqilov K.O. va boshqalar. O’zbekiston tarixi.-T.: Sharq 2004.-B.326.

voqeligini, respublika mehnatkashlarining “Sotsializm va kommunizm” uchun kurashdagi “ fidokorona ” mehnatini aks ettiruvchi asarlar yaratdilar. Ularning ijodi, asosan, partiya o’sha yillarda o’rtaga tashlagan asosiy vazifasi, yani paxta muammosiga, cho’llarni o’zlashtirishga, “Rivojlangan sotsializm” davrini ulug’lashga bag’ishlangan mavzularni hal etishga qaratilgan edi ”¹¹

Bu yillarda Ch. Ahmarov va O’.Tansiqboyevlar devoriy rasmlar, mazaika va manzara janri bo’yicha, V.Ye.Kaydalov va M.Nabiyevlar Portret janri (po) bo’yicha muhim asarlar yartadilar. Rassomlar, haykaltaroshlar va arxitektorlar birlashib, yirik monumental binolarni, maydonlarni tamirlash, naqshlar, rassomlik va haykaltaroshlik asarlari bilan bezatish an’anaga aylandi.Poytaxtning yirik jamoat binolari M.Usmonov rahbarligida ganch o’ymakorligi, Q.haydarov va O.Fayzullayev rahbarligida yo’g’och o’ymakorligi bilan bezatildi.

O’rol Tansiqboyev tomonidan “Kuh” (1971) va 1972-yillarda yaratgan “Mening qo’shig’im ”polotnosi dovrug’ topdi. “Mening qo’shig’im ” kartinasi musavvir umrining so’ngi yillarida yatatilgan.Shuning uchun ham ushbu kartinada rassomning butun ijodiy mehnati, hayot yo’li mujassamlashgandek ko’rinadi. Rassom o’zining bu asarida tabiatning nafis va nozik go’zallilarini chizadi.

Malik Nabiyev tomonidan 1972-yil-yilda Buyuk qomusiy olim Abu Rayxon Beruniy Porteretini chizadi.

Mutaffakkir Beruniy obrazi rassomning bir necha yillik izlanishlari, portretning bir necha bor eskizlar va ranglamalarini ishlashi natijasida yuzaga kelgan.

1949-yili Al-Beruniy vafotining 900 yilligi munosabati bilan olim portretini yaratish uchun konkurs elon qilindi. Musavviyning asrlaridagi buyuk olim obrazi boshqa rassomlar tomonidan ishlangan namunalarga

¹¹ Jo’rayev M.,Nurzulin R., Kamolov S. Va boshqalar, O’zbekiston Sovet mustamlakachilk davrida –T.: Sharq, 2000.-B.585.

nisbatan to'laqonli, deb e'tirof etiladi. 1973-yilda esa Beruniy tavalludiga 1000 yil to'lishi munosabati bilan ikkinchi marotaba konkurs e'lon qilindi. Malik Nabiyeu Beruniy obrazi ustida izlanishni dsavom ettirib va nihoyat 2-marotaba konkurs g'olibi bo'ldi. Bu portret konkursdan so'ng YUNESKO ning "Kurer " jurnali muqivasiga va xorijiy mamlakatlarning ko'pgina jurnal va gazetalarida bir necha bor nashrdan chiqarildi.

Mannon Saidovning "Asakiya " mavzusiga bag'ishlangan bir nechta asarlari bo'lib, unda o'zbek xalqiga xos samimiy kulgi ishqibozlarning ma'naviy qiyofasi o'z aksini topgan. Bundan tashqari rassomning o'sha yillarda yaratgan "Olila ", "Xumsan " , "Uzum terishda " , "Katta qo'rg'onlik paxtakorlar " , "To'g manzarasi " , "Hosil" kabi o'nlab asarlarini misol keltirish mumkin. Takidlab o'tish joizki , rassomning "Askiya " asari 1973-yilda ishlangan. Haykaltarosh Damir Ro'ziboyev 70-yillarning 2-yarmiga kelib ijodi mazmunan va shaklan boyidi. U 1977-yilda o'zining "Sozandalar " deb ataluvchi asarini yaratdi.¹²

Bu o'rinda Jo'ldoshbek Quttimurodov ijodiga ham to'xtalish mumkin. Haykaltaroshning ijodiy faoliyati ayniqsa "Nihol " (1970), "Beruniy " , "Oq qush " , "Qiz " (1970-1978) kabi asarlarida yaqqol seziladi. Uyg'un tasvirlanishlar, yani badiiy obrazning jonliligi, butunligini ta'minlanishi Jo'ldoshbek Quttimurodov asarlarida har jihatdan o'z ifodasini topgan. Bu o'rinda ayniqsa "Baliqlarni qutqarayotgan Anaxita " (1981) , "Ikkiyuzlamachi ayol" (1980), "Farhod" (1981), "Guldirsun" (1982), "O'tirgan Qiz" kabi asrlari e'tiborga molik.

Ilxom Jabborov tomonidan "Xayol" , "Ibin Sino", "Farobiy " , "Navoiy va Jomiy " asarlari e'tiborga molikdir.

O'zbekiston xalq rassomi javlon Umarbekov talabalik yillarida "Mning do'stim" (1971) deb nomlangan asarini yaratadi va birin ketin "Suvga" (1975), "Yoz " (1976), "Birinchi qor " (1977),

¹² Oydinov N. tasviriy san'at tarixi.-T.:Ijod, 2007. -B.63.

”Oltin natyimont”, “Avtoportret” (1975), (Suv) “Suvga kelayotgan ayol” asarlarini e’lon qiladi. 1980-yillarga kelib rassomning mazmunan keng qamrovli va kompozitsiya jihatdan yanada murakkab asarlari tasviriy san’at ihlosmandlarining xurmatiga sazovor bo’ldi.

70-80-yillarda ifodaviy vositadagi ta’sirchanlik xususiyatining jadal suratlar bilan kuchayishi, naturani obrazli umulashma darajasiga ko’rtarish alomati sezildi. Rang tasvirda B.Boboyev, J.Umurbekov, S.Abdullayev, Sh.Abdurashidov, Y.Milkikov, V.Burmakinlar ijodi ayniqsa ko’zga tashlandi. Grafikada shu shu yillari Q.Basharov, V.Parshin, M.Kagarov, F. Kagarov, T.Muhammedov, S.Subxanov, A.Siglensovlar samarali ijod qildilar. Ular milliy xarakterning teran ildizlarini anglashga intildilar. Haykaltaroshlar A.Ahmedov, M.Musaboyev, A.Boymatov, D.Qoziboyev, X. Husniddinxo’jayev, R. Nemirovskiylar faol izlanishlar olib bordilar.¹³

Rang tasvirda 1970-yillarning ikkinchi yarmi va 1970-yillarda yangi istedodlar ijodida, jahon san’atidagi turlanishlarni ilg’ash qayta ishlash an’anasi kuchaydi. J.Umarbekovning “Men insonman”, “Oqil inson”, A.Ikromjonovning “GDR xotiralari” asarlarida shu holni kuzatish mumkin. V.Oxunov va M.To’xtayevlar ijodida kishilar ruhiyatida ro’y berayotgan insoniyat taqdirining dolzarb muammolarini talqin etilgan. Bu xususiyat V.Oxunovning “Qamaldagi Sankt-Peterburgga non jo’natish”, M.To’xtayevning “Tinchlik bo’lsin uyimda...” kompozitsiyalarida ko’rinadi. M.To’xtayev surrealizm oqimi, shuningdek, Salvador Dali ijodiga taqlid qilib, Kompozitsiyalariga ba’zan S.Dali kartinalaridan ayrim elementlaridan to’g’ridan-to’g’ri kiritadi. U o’z asarlarida ko’pincha real hayot va fantastik hayot oralig’idagi tushunchalarni ifodalaydi. B.Jalilov, V. Jdanovlar esa o’z ustozlari A.Milnikov va E.Moiseyenko izlanishlaridan ruhiy oziq olgan holda o’ziga xos individual xususiyatlarini tobora kuchaytirganday. V.Useinov ramziy obrazlar, fantastik

¹³ Egamberdiyev A., Saidova S., Rajabov K. Tasviriy va me’morchilik san’ati tarixi. –T.: O’qituvchi, 2007. –B.125.

obrazlarni talqin etishga intiladi. Plakatchi rassomlar E.Abdullayevning “Qarg’alar uchib ketadi ” , F.Kagarovning “Bolalarga tinchlik ”, A.Balkonovning “Apposionata ” turkum asarlari mavjud. 1987-yili V.Oxunov “osmonga shoti ” asarini yartadi.

Akmal Nur “Hijron”, “Munavvar Tong ”, F.Ahmadaleyevning “Oydin tun ” “Shafaq bilan uchrashuv ”, A.Mirzayev “Taqdirning ikki ko’rishi ” nomli asarlarida ramziy talqinlar, ifodali belgilar, ilohiy tuyg’ular, ruhiy tolqinlashuvlarni ifodalaganlar.

Bu yillarda Akmal Ikromjonov o’zining “Orol mening dardim” (1988), “Hisor fojiasi” (1989), “Chaqmoq” (1989) kabi asarlarida davrimizning murakkab muammolarini aks ettiribgina qolmay, tabiatga, insoniyatga meh-shavqat, adolatparvarlik zarurligini ta’kidlaydi.

Temur Sa’dullayev tomonidan yaratilgan ko’plab asarlar o’z muhlislariga ega bo’ldi. Bu muvaffaqiyatlar 70-yillarda ko’zga tashlangan edi. Uning “Navro’zda ”, “Qizlar bayrami ”, “Qiz portreti”, “Omon Matjon ”, “navoiy va Begzod ”, “Xosiyat Bobomurodova ”, “Soli Mutaliboyev” kabi asarlarini misol keltirishimiz mumkin.Adabiyot va tasviriy san’atning chambarchas bo’g’liqligi rassom ijodining bosh mavzusidir.Temur Sa’dullayev ijodiy faoliyati davomida bu an’anaga sodiq bo’lib kelmoqda.80-yillarga kelib rassom portret janri borasida yanada sermahsul ijod etdi.¹⁴

E.Masharipov esa “Jaloliddin Manguberdi ” Musiqa kompozitsiyalarida sezgilari, tuyg’ularini ranglar vositasida, keskin ichki to’lqin harakatida ifoda etgan.Lekin Ibrohim tomonidan “Turon ayyolari ”, “Furzi va Xokusai ”, “Movoronnoahr ”, “Qurmong’ozi kuyi ” “Amudaryo ” , “Xo’tanlik ayol ”, “Mayna”, “Darolsh”, “Dam olayotgan xonim ” kabi nodir asarlar yaratilgan.

¹⁴ Oyidinov N. tasviriy san’at tarixi.-T.:Ijod, 2007. –B.75.

S. Raxmetovning “G’ofur G’ulom portireti ”,”Azamat Hotamov portireti ”, “Avtoportret ” (2 va riantda) , “Asanali Ashimov ”, “Ytunus Rajabiy ” portretlari diqqatga sazovor.

Akmal Ikronjanov Navoiy lirikasi bo’yicha “Layli va Majnun ”, “Sevishganlar ” asarlarini yaratdi. Begzod hayoti va ijodini o’rganib, unga tasvirlar chizdi. Rassom shuningdek, kasbdoshlari, ko’ngliga yaqin ijodiy izlanishlariga turtki bergan ustozlari siymisini yaratdi.Uning “Qo’shiq ” (a) (O’rol Tansiqboyev xotirasiga bag’ishlov), “Hikmat raxmatov portireti ”, “Pikasso ”, “Kompazitor Mirzaxalil Mahmudov ” asarlari etiborga molikdir.

Nodira Oripova ijodida Sharq ayollari dunyosi keng o’rin olgan.”Ko’ksaroy g’o’zalari”, “Afrosiyobli farishtalar ”, “Dilbar ”, “Laylo ” va boshalarda qahramonlari ichki ruhiy dunyosini ziyraklik bilan tasvirlangan.Voqeylikni qabul qilishdagi o’ziga xoslik, musavvir qalbidagi taasurotlar “Muza”, “Sunbula”, “Kuz qo’shig’i” va boshalarida o’z aksini topgan.

Emir Mansurovning “Xorijlik Ayol ” ,”Zamondoshlar ”, “Ashula”, “Yuz birinchi bahor ”, “Maqom”, “Mahsum To’ta ”, “Onam portireti” kabi tasvirlarda qahramonlari beihtiyor tomoshabin diliga yaqin.

N.Abdusalomxo’jayevning “Sozanda qiz”, T.Karimovning “Maftunkok ohu ” asarlarida ham miniatura janriga xos go’zal olam yaratilgan.X.Ziyoxonovning “Osmon-u falak, ” Sharq taronasi kompozitsiyalarida Sharq ruhini ifodalovchi buyumlarning o’ziga xos naqshlardan foydalanilgan.

Xulosa.

Shunday qilib O'zbekiston san'ati, yani tasviriy san'at, teatr rivojlanib bordi. Biroq adabiyot singari san'at ham hukumron mustabid tuzum mafkurasi tayziqiga uchradi. Bu davrda voqeylikni haqqoniy aks ettiradigan, milliy xususiyatlarga ega bo'lgan yetuk san'at asarlari soni kam edi. lekin o'zbek xalqi o'zligini unutmadi. O'zining nafratini shu asarlar orqali oshkora qildi. Sovet hukumati tomonidan trayziqqa olingan o'zbek xalqi yengilmadi va bu hukumatga qarshi kurashib bordi. Nihiyat mustaqilikka erishildi. Mustaqillik xalqimizning XX asrda erishgan eng yuksak yutug'i, ajdodlarimiz to'kkan qutlug' va tabarruk qonning mahsuli bo'ldi. Mustaqillik yillarida Adabiyot va san'atga katta e'tibor qaratila boshladi. Bu borada yangi e'tiborga molik ishlar amalga oshirildi. Ilgari adiblarimiz tomonidan yaratilgan asarlar oqlandi va rus, o'zbek, tillarida to'la qonlicha nash ettirila boshlandi.

Ilmiy, Badiiy va musiqa asarlari yaratildi. Ma'naviy hayotda iste'dodli yoshlar o'rin oldi. Biz uchun meros bo'lib qolgan bunday durdona asarlarni asrash biz yosh avlod uchun maqsadli vazifadir.

Zeroki Prezidentimiz I.A.Karimov takidlaganlaridek "Bizdan obod va ozod vatan qolsin"

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston milliy Ensiklopediyasi. –T. : Davlat ilmiy nashriyoti, 2004, 8 – tom.
2. Jo'rayev M.,Nurzuln R., Kamolov S. Va boshqalar. O'zbekiston Sovet mustamlakachilk davrida –T.: Sharq, 2000.
3. Alimov D.A., Karimov R.H., Oqilov K.O. va boshqalar. O'zbekiston tarixi.-T.: Sharq 2004.
4. Murtazayeva tahriri ostida.O'zbekston tarixi. –T.: Yangi asr avlodi, 2003.
5. Usmonov Q., Sodiqov M. O'zbekiston tarixi –T.:Sharq 2003.
6. Karimov N., Nazarov B., Normatov U., Yo'ldoshev Q., Adabiyot (11-sinf). –T.: O'qituvchi 2004.
7. Ahmedov S., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot (6-sinf).-T.: Ma'naviyat, 2009.
8. Yo'ldoshev Q., Qosimov B., Qodirov V., Yo'ldoshbekov Z. Adabiyot (7-sinf).-T.:Sharq 2009.
9. Karimov N., Nazarov B., Niyozmetova G., Normatov U. XX asr O'zbek adabiyoti. –T.: O'qituvchi ,1993.
- 10.Qodirov M.O'zbek teatri tarixi.-T.: Ijod dunyosi, 2003.
- 11.Olim S., Ahmedov S., Qochqorov R., Adabiyot (8-sinf) –T.: O'zbekiston, 2010.
- 12.Mavrulov A., Dehqanov I., Madaniyat tarixi.-T.:O'qituvchi, 2007.
- 13.Egamberdiyev A., Saidova S., Rajabov K. Tasviriy va me'morchilk san'ati tarixi. –T.:O'qituvchi, 2007.
- 14.Oydinov N. tasviriy san'at tarixi.-T.:Ijod, 2007.